



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI

AXBOROT XATI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-pedagog kadrlar bo‘limi, Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan **2022-yil 30-noyabrda** **“Filologiya masalalari – yosh tadqiqotchilar nigohida”** mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

Konferensiya quyidagi sho‘balar bo‘yicha ish olib boradi:

I sho‘ba. Adabiyotshunoslik.

- a) o‘zbek adabiyoti tarixi;
- b) zamonavaviy adabiy jarayon (nazm, nasr, dramaturgiya);
- c) folklorshunoslik;
- d) turkiy xalqlar adabiyoti;
- e) bolalar adabiyoti;
- f) matnshunoslik va adabiy manbashunoslik;
- g) navoiyshunoslik;
- h) qiyosiy adabiyotshunoslik;
- i) jahon adabiyoti muammolari;
- j) adabiyot nazariyasi muammolari.

II sho‘ba. Amaliy filologiya.

- a) amaliy filologiya;
- b) kompyuter lingvistikasi;
- c) noshirlik ishi.

III sho‘ba. Tarjimashunoslik.

- a) tarjima nazariyasi va amaliyotidagi yangicha yondashuvlar;
- b) badiiy, ilmiy-texnikaviy, sinxron tarjima istiqbollari;
- c) tarjimon kompetensiyasining shakllanishi;
- d) tarjima maktablari;
- e) tarjimon mahoratini tekshirish.

IV sho'ba. Tilshunoslik.

- a) til tarixi;
- b) til nazariyasi;
- c) hozirgi o'zbek adabiy tili;
- d) turkiy tillar;
- e) imlo muammolari;
- f) shevashunoslik;
- g) lingvopoetika masalalari;
- h) psixolingvistika;
- i) lingvokulturologiya;
- j) qiyosiy tilshunoslik.

IV sho'ba. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi.

- a) o'zbek tilini o'qitish metodikasi;
- b) o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi;
- c) tarjima nazariyasi va amaliyotini o'qitish metodikasi.

Konferensiya materiallarini elektron nashr etish ko'zda tutilmoqda. Maqolalar konferensiya sho'balari mavzusi bo'yicha joylashtiriladi.

Maqolaga qo'yiladigan talablar:

- Maqolalar 4-5 sahifadan kam bo'lmagan hajmda bo'lishi lozim (iqtibos olingan holda muallif ko'rsatilishi shart)!

- 1,5 intervalda, o'ng tomondan 3 sm, chap tomondan 1 sm, yuqori va pastdan 2 sm hoshiya qoldirib, Times New Roman 14 shriftida elektron variantda topshiriladi.

- Maqola annotatsiyasi o'zbek va ingliz tilida 50-70 ta so'z, kalit so'zlar 5-7 tagacha bo'lishi kerak (Annotatsiya "Bu maqola falon narsa haqida", – degan umumiy gapdan iborat bo'lmashligi lozim. Maqolaning maqsadi? Qanday tadqiqot metodi va metodologiyasidan foydalanildi? Maqolada qo'yilgan ilmiy muammoga yechim berildimi, berilgan bo'lsa qanday? Maqola dolzarbmi kabi savollarga javob berish maqsadga muvofiq; Annotatsiya – yozilgan butun boshli maqolaning qisqacha xulosasi. Unda siz kichik tadqiqotingizda nimani o'rgandingiz, qanday o'rgandingiz, qanday xulosaga keldingiz kabi masalalarni yoritishingiz lozim. O'quvchi sizning annotatsiyangizga qarab yoki maqolaga qiziqib qoladi va to'liq o'qib chiqadi, yo buncha zerikarli deb burun jiyiradi. Annotatsiya bu maqolaning reklamasi. Shunday ekan, uni yaxshiroq yozishga harakat qiling).

- Maqola sarlavhasi **KATTA** harflarda, **qalin** shriftida beriladi.

- Muallif *familiyasi, ismi, sharifi, fakulteti, kursi, elektron pochta, telefon raqami* 1 intervalda, 14 shrift, *yotiq(kursiv)* uslubda beriladi.

- Ichki havolalar matn ichida qavsda beriladi. (Jo'raqulov, 2020, 28-bet) yoki (Hamidova, 2022, 38-39-bet)

- Matn so'ngida foydalanilgan adabiyotlar keltiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati quyidagi tartibda beriladi:

1. Muallifning familiyasi to'liq yoziladi
2. Ismi va otasining ismi bosh harflari yoziladi
3. Manba chop etilgan yil
4. Manba sarlavhasi
5. Manba chop etilgan joy

1. Akramov, G'. (1997). "Xamsa"da mifologik zamon va makon talqini. *O'zbek tili va adabiyoti*, 2, 78-81.

2. Jo‘rayev, M., & Narziqulova, M. (2006) *Mif, folklor, adabiyot*. (183-bet). Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
3. Radloff, W.(1894). *Die alttürkischen Inschriften der Mongolei*.(pp. 460). St-Pbg: Neue Folge.
4. Turdimov, Sh. (2011). “*Go‘ro‘g‘li*” *dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari*. (308-bet). Filol. fan. dok. diss. Toshkent.
5. Кормушин, И.В. (1997).Тюркские и енисейские эпитафии. Тексты и исследование. *Наука*. С. 303.